



## IRLANDIYA PRESVITERIANLIK CHERKOVINING KIBERMAKONDA GAVDALANISHI

**Nig'matullayev Ibrohim Ma'ruf o'g'li**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
1-bosqich magistranti  
O'zbekiston, Toshkent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5716530>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-noyabr 2021  
Ma'qullandi: 10- noyabr 2021  
Chop etildi: 15- noyabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

presviterianlik, cherkov,  
onlayn xizmatlar,  
xristianlik, ijtimoiy tarmoq,  
internet.

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Irlandiya presviterianlik cherkovining vujudga kelish tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Irlandiya presviterianlik cherkovining internetda qay tarzda gavidalanishi yoritib berilgan.*

## THE APPEARANCE OF PRESBYTERIAN CHURCH IN CYBERSPACE

**Nigmatullayev Ibrokhir Maruf ogli**

1st year master's degree student of  
International islamic academy of Uzbekistan  
Uzbekistan, Tashkent

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> November 2021  
Accepted: 10<sup>th</sup> November 2021  
Online: 15<sup>th</sup> November 2021

### KEY WORDS

presbyterian, church, online  
service, christianity, social  
network, internet.

### ABSTRACT

*The article provides information as to the history of the Ireland presbyterian church and the identities of it. It also gives information about how the Ireland presbyterian church appears on the internet.*

Tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunimizni ilg'or texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Ular hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo'ldi. Ayniqsa, Covid-19 pandemiyasi davrida internet, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'rsatkichlari keskin ortdi. Jumladan,

xristianlikning Internetga dastlab kirib kelgan oqimlaridan hisoblanmish presviterianlikda onlayn cherkov xizmatlari vujudga keldi.

Presviterianlik (grekcha - "katta") - Reformatsiya vaqtida Shotlandiya va Angliyada kalvinizm konfessiyasi ichida



vujudga kelgan protestantlik yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu yo'nalish asoschi Djon Noks (1514-1572) cherkov tuzilishini respublika shaklida isloh qilish, xususan, yepiskomatni bekor qilish va ilk xristianlik ta'limotini tiklashni talab qilib chiqqan. Tashkilotning nomi Bibliyadagi "presviter" so'zi bilan bog'liq. Presviterian cherkovi diniy ta'limotining asosiy tamoyillari Jan Kalvin tomonidan yozilgan "Vestminster e'tiqodi" (1647-1648) diniy asarida bayon qilingan bo'lib, unga ko'ra Iso Masih cherkovning yagona rahbari hisoblanadi [1, B. 76].

Presviterian cherkovlarini saylanadigan presviter va pastorlar boshqaradi. Presviter cherkov jamoasi rahbari hisoblanib, jamoa a'zolari tomonidan saylanadi. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadilar. Diniy amallar soddalashtirilgan bo'lib, ma'ruza, umumiy ibodat, diniy qo'shiq va gimnlar aytishdan iborat [2, B. 322].

Protestantlik yo'nalishi dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, Irlandiya presviterian cherkovi Irlandiya Respublikadagi eng yirik protestantlik diniy konfessiyasi hisoblanadi. Irlandiyadagi boshqa xristianlik cherkovlari kabi mazkur cherkov ham Irlandiya Respublikasi tamoyillari asosida tashkil etilgan. Cherkovning 536 ta kongregatsiyasi mavjud bo'lib, uning taxminan 225 mingga yaqin a'zosi bor. Irlandiya presviterian cherkovining 96% a'zosi Shimoliy

Irlandiyadan hisoblanadi. Bu Shimoliy Irlandiyadagi ikkinchi eng katta cherkov bo'lib, birinchisieng yirigi katolik cherkovidir. Respublikada ikkinchi eng katta cherkov protestant cherkovi hisoblanadi. Barcha kongregatsiyalar Bosh Assambleya (cherkov hukumati) boshchilik qiladi.

Irlandiyada presviterianizm tarixi 1610-yildagi Olster plantatsiyasi davridan boshlanadi. Shotlandiyada Jeyms VI hukmronlik qilgan davrda ko'p sonli shotlandiyalik presviterianlar Irlandiyaga ko'chib kelganlar. Irlandiyaga dastlabki Shotlandiya cherkovi ko'chib kelganda presviterianlik uning tarkibida bo'lgan. Ilk protestantkapellani (cherkovi) asoschisi sifatida Ulster tilga olinadi.

Irlandiyadagi Presviterian cherkovi (PCI) 1840-yilda ikkita presviterian cherkovi, ya'ni Olster Bosh Sinodi va mustaqil sinodining birlashishi natijasida tashkil etilgan. Ikki cherkovning birlashishi 1840-yil 10-iyulda Irlandiya Presviterian cherkovining Belfastdagi birinchi Bosh Assambleyasida bo'lib o'tdi.

Irlandiya presviterianligi XVII asrning boshlarida Shotlandiyaning Olsterga ko'chishidan vujudga kelgan. Antrim okrugidagi Ballikarri presviterian cherkovi 1613-yilga borib taqaladigan eng qadimgi kongregatsiya hisoblanadi [3].





Irlandiya presviterian cherkovi logosi

Presviterian cherkovi atributlari 4 qismdan iborat:

Minbar. Minbar – va’z o’qiladigan joy bo’lib, u odatda cherkovda markaziy o’rinni egallaydi. Chunki undan turib duolar o’qiladi.

Bibliyani qo’yish uchun maxsus joy. Bibliya cherkov hayotini boshqaruvchi muhim manba hisoblanadi.


Prichastiya marosimini o’tkazish uchun maxsus stol. Mazkur stol marosim vaqtida elderlar tomonidan ishlatiladi.

Cho’qintirish marosimini o’tkazish uchun maxsus tosh kosa. Cho’qintirish vaqtida

foydalanilib, chaqaloqning cherkov jamoasiga kirib kelishini anglatadi [3].

Irlandiya presviterian cherkovida ibodat psalmalar (madhiyalar), Zabur, va’zlar va muqaddas bitiklarni o’qishni o’z ichiga oladi. So’nggi yillarda hamd-sanolar qo’llanilgan, ammo hali ham ibodatning muhim qismi hisoblandi.

Ko’pgina presviterian cherkovlari Zabur va rasmiy madhiyalarni xorlar bilan qo’shib kuylaydilar. Bolalarga uchun mos va qulay bo’lishi uchun bugungi kunda ko’plab cherkovlarda turli xil asboblardan ham foydalanadilar.



Irlandiya presviterian cherkovining rasmiy sayti

Bugungi kunda Irlandiya presviterian cherkovining <https://www.presbyterianireland.org> sayti mavjud bo’lib, u quyidagi qismlardan iborat:

Missionerlik. Mazkur qismda Irlandiya presviterian cherkovining a’zolari (missionerlari, cherkov xodimlari, diakonessalar) va ularning amalga oshiradigan loyihalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.



Mission People



Mission Projects



Mission Partners



Mission Countries



United Appeal



Mission in Ireland



Social Witness



Global Mission



Mission Prayer

Ibodot. Ibodot bo'limida esa ibodatlarining o'tkazilish vaqti, rejasi, ibodat manbalari xususidagi ma'lumotlar berilgan.



Let's Pray



Let's Pray resources



In this moment



Weekend of Prayer

Weekend of Prayer

3. Voqea-hodisalar qismida Irlandiya presviterian cherkoviga oid voqealar kiritiladi.

4. Manbalar bo'limi quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

san'at asarlari & logolar;

Bibliyani o'rganish;

yarashtiruv xizmati;  
kongregatsiya hayoti;  
shogirdlikka tushish;  
moliya;  
Bosh Assambleya;  
global missionerlik;



onlayn xizmatlar;  
radio eshittirishlar (podcasts);  
xabarlar;  
yetakchilik (leadership);  
jurnallar & gazetalar;  
Irlandiya bo'ylab missionerlik;  
o'zlari kela olmaydigan insonlarni yordam  
va maslahat bilan ta'minlash xizmati  
(outreach);  
pastor xizmati;

Irlandiya presviterian cherkovi kalendari;  
ibodat;  
"Presbyterian Herald" ("Presviterian  
xabarnomasi") gazetasi;  
"Presviterian ayollari" klubi;  
jamoatchilik ishlari;  
himoya xizmati;  
ibodat va an'analar;  
bolalar va yoshlar.



Artwork & Logos



Bible Study



Conciliation Service



Congregational Life



Discipleship



Finance



General Assembly



Global Mission



Online Services



Podcasts



Reports



Leadership



Magazines &  
Newsletters



Mission in Ireland



Outreach



Pastoral Care



5. Yangiliklar. Mazkur qismda Irlandiya presviterian cherkovi hayotiga oid eng so'nggi yangiliklar berib boriladi.

Blog. Mazkur bo'limda turli xil mavzulardagi ma'lumotlar berib boriladi.

Mashg'ulotlar. Mazkur qismda presviterianlar faoliyatiga oid turli xil mashg'ulotlar o'tkaziladi [4].



Cherkovning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifasida xayriya uchun ham maxsus joy ajratilgan bo'lib, u orqali mablag'lar qabul qilinadi.

Cherkovda onlayn ibodat qilishda ibodat o'tkazish dasturi, vaqtlari oldindan ijtimoiy tarmoqqa joylanadi va tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, kibermakonga birinchilardan bo'lib kirib kelgan presviterianlik yo'nalishi "onlayn ibodat"larni yo'lga qo'yishda ancha ilg'or hisoblanadi va mazkur xizmatlarni kundan kunga rivojlantirib bormoqda

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari / mas'ul muharrirlar K. Kamilov, A. Mansurov. - T.: Toshkent islom universiteti, 2014.
2. Dinshunoslik qomusiy lug'ati. Mas'ul muharrir: Z.Islomov. - Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2017.
3. [https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Presbyterian\\_Church\\_in\\_Ireland&oldid=1053437932](https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Presbyterian_Church_in_Ireland&oldid=1053437932)
4. <https://www.hierarchystructure.com/presbyterian-church-hierarchy/>